

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR INKLYUZIV TA'LIMINI
TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Maxsus pedagogika (logopediya)

yo'nalishi 2-kurs magistranti

Raximbekova Elmira Sardorbek qizi

raximbekovaelmira@gmail.com

Annostatsiya: Ushbu maqolada imkniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish masalalari pedagogik va psixologik jihatdan yoritib berilgan va inklyuziv ta'limning mohiyati, uning asosiy tamoyillari, ta'lim jarayonida pedagog va psixologlarning vazifalari hamda bolalarning psixologik moslashuvi masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek xorijiy tajriba asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, pedagogik yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim muhiti.

Annotation: this article examines the issues of organizing inclusive of organizing inclusive education for children with disabilities from pedagogical and psychological perspectives. The essence of inclusive education, its main principles, the roles of teachers and psychologists, as well as issues related to the psychological adaptation of children in the educational process are highlighted. In addition, based on international experience, ways to improve the effectiveness of inclusive education are presented.

Keywords: inclusive education, children with disabilities, pedagogical approach, psychological support, educational environment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации инклюзивного образования для детей с ограниченными возможностями с педагогической и психологической точек зрения. Освещаются сущность инклюзивного образования, его основные принципы, задачи педагогов и психологов, а также вопросы психологической адаптации детей в образовательном процессе. Кроме того, на основе зарубежного опыта показаны пути повышения эффективности инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, педагогический подход, психологическая поддержка, образовательная среда.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida imkoniyatlari cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim barcha

bolalar, jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida muayyan cheklovlarga ega bo‘lgan bolalarning umumta‘lim muassasalarida teng sharoitda ta‘lim olishiga qaratilgan. Inklyuziv ta‘limni samarali tashkil etish faqatgina moddiy sharoitlar bilan emas, balki pedagogik va psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu bois, imkoniyatlari cheklangan bolalar inklyuziv ta‘limini tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta‘limning pedagogik jihatlarini ta‘lim jarayonini har bir bolaning imkoniyatlariga mos holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni rejalashtirishi muhimdir.

-Pedagogik jihatdan inklyuziv ta‘lim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. bolaga individual yondashuv asosida ta‘lim berish;
2. o‘quv materiallarini bolaning qabul qilish darajasiga moslashtirish;
3. dars jarayonida turli metod va usullardan foydalanish;
4. o‘qituvchi va boshqa mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida inklyuziv ta‘limda moslashtirilgan o‘quv dasturlaridan keng foydalaniladi. Bu esa imkoniyatlari cheklangan bolalarning ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Inklyuziv ta‘lim bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlil qilinganda, masalan, Rossiya Federatsiyasida o‘qituvchini imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limiga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari “Umumta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlari kasbiy darajasini oshirishning kompleks dasturi”da (2014 y.) aks ettirilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar ushbu kasbiy standart pedagogik ta‘lim sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi malaka talablarini ishlab chiqishda asos sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu davlatning bir qator oliy ta‘lim muassasalarida oliy kasbiy ta‘lim standartlariga muvofiq pedagoglar va inklyuziv ta‘lim sohasidagi mutaxassislarni “Psixologik-pedagogik ta‘lim” yo‘nalishida tayyorlab kelinmoqda. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni normal rivojlanayotgan tengqurlari bilan teng ta‘lim jarayoniga jalb qilishga zaruratni hozirgi kunda ta‘minlash zarur. Shuning uchun inklyuziv ta‘lim rivojlanishining hozirgi bosqichida uni amalga oshirish

uchun pedagoglarni tayyorlashda hududiy xalq ta‘limi boshqarmalari metodik xizmati, OTMlari darajasida ta‘lim klasteri tizimiga alohida rol ajratiladi. Xalqaro mutaxassislar orasida “inklyuziv ta‘lim” atamasi 1994 yilda Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va Alohida ehtiyojli shaxslar ta‘limi sohasidagi tamoyillar, siyosat va amaliy faoliyat to‘g‘risidagi Salamanka deklaratsiyasida rasmiy qabul qilingan edi. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasidagi amaliyotga inklyuziv ta‘lim g‘oyalarini joriy qilish bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, ... va boshqalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. “Inklyuziya”, “inklyuziv ta‘lim” atamalari keng qo‘llanishiga qaramasdan, ushbu tushunchalarning mohiyatini aniqlash masalasi hozirgacha bahsli bo‘lib qolmoqda, bu bizning fikrimizcha, tadqiqotchilarning ushbu fenomenga har turli metodologik yondashuvlari bilan bog‘liq. Ta‘lim sohasida inklyuziv yondashuvning evolyusiyasi jamiyatning nogironlik to‘g‘risidagi tushunchasi o‘zgarishiga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o‘rtasigacha mavjud bo‘lgan salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni ajratib qo‘yishni nazarda tutuvchi tibbiy model o‘rniga XX asrning 1980-yillari o‘rtasigacha davom etgan normallashtirish modeli keldi. Bu model salomatlik imkoniyati

cheklangan odamlarni jamiyatga integratsiyalashni nazarda tutar edi. Hozirgi vaqtda salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta'limidagi to'siqlar va muammolar jamiyat ta'lim tizimining atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari nomukammalligini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy modelga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning psixologik holati alohida ahamiyatga ega. Imkoniyatlari cheklangan bolalar ko'pincha o'ziga ishonchsizlik, tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Psixologik jihatdan quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zarur:

1. bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish;
2. sinfda ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish;
3. bolalarning o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
4. stress va emotsional zo'riqishning oldini olish.

Xorijiy tajribada maktab psixologlari tomonidan olib boriladigan maslahatlar va mashg'ulotlar bolalarning ta'limga moslashuvini yengillashtiradi. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda pedagog va psixologlarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Pedagog ta'lim jarayonini tashkil etsa, psixolog bolaning ruhiy holatini kuzatib boradi va zarur yordamni ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ota-onalar bilan hamkorlik ham inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Xorijiy amaliyotda barcha mutaxassislarning birgalikda ishlashi ijobiy natijalar bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyatlari cheklangan bolalar inklyuziv ta'limini tashkil etishda pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida individual yondashuv, ijobiy psixologik muhit va mutaxassislar hamkorligi bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Xorijiy tajribani o'rganish va undan foydalanish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lixodedova L. N. Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Akademiya, 2016.
2. F.U.Qodirova, D.A. Pulatova Inklyuziv Ta'lim: nazariya va metodika-Chirchiq 2022
3. Nazarova N. M. Maxsus pedagogika. – Moskva: Akademiya, 201
4. Friend M., Bursuck W. Maxsus ehtiyojli o'quvchilarni inklyuziv ta'limga jalb etish. – Boston: Pearson, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
6. UNESCO. Inklyuziv ta'lim: barchaga ta'limni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar.
7. Rasmiy sayt: <https://www.unesco.org>
8. UNICEF. Inklyuziv ta'lim va nogironligi bo'lgan bolalar huquqla